

**CONTINUING EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE,  
INNOVATION, AND TRANSFORMATION.**  
**International online conference.**

Date: 29<sup>th</sup> May-2025

**SUN'iy INTELLECT DUNYONI QANDAY O'ZGARTIRISHI MUMKIN?**



**Rasulova Barchinoy Karim qizi**

G'ijduvon tuman 2-son politexnikumi Informatika fani òqituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sun'iy intellekt haqida batafsil ma'lumot keltirishga harakat qildim. Unda sun'iy intellektning rivojlanish tarixi, SI turlari, so'nggi yutuqlari, muloqotga xoslangan sun'iy intellect barchasi haqida ma'lumotlarni birlashtiradi.

**Kalit so'zlar:** ML, Deep Learning, LLM, ChatGPT, Microsoft Copilot va Claude : tor SI, umumiylar SI va super SI.

**Аннотация:** В данной статье я постарался подробно изложить информацию об искусственном интеллекте. В ней объединены сведения об истории развития ИИ, его видах, последних достижениях и об искусственном интеллекте, ориентированном на общение.

**Ключевые слова:** ML, Deep Learning, LLM, ChatGPT, Microsoft Copilot и Claude: узкий ИИ, общий ИИ и супер ИИ.

**Kirish.**

SI juda ko'p sohalarda qo'llanishi mumkin. Uning imkoniyatlari allaqachon kundalik hayotimizga kirib kelgan ham. Iste'molchilar darajasida bu yaqinda yangilangan Google Search, aqli aksessuarlar va hatto robot changyutgichlarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, Alexa yoki Google ovozli yordamchisi bilan jihozlangan aqli kolonkalar ham sun'iy intellektning yaqqol misollaridan biridir.

ChatGPT, Microsoft Copilot va Claude kabi mashhur sun'iy intellekt chatbotlari turli vazifalar uchun foydali bo'lishi mumkin. Masalan, murakkab ma'lumotlarni soddallashtirib tushuntirish, elektron xatlar yoki loyiha rejalarini tayyorlash, hatto kreativ hikoyalar yozish kabi ishlarda foydalansa bo'ladi. Biroq SI haqiqatni uydirmadan farqlay olmaydi. Shuning uchun ba'zan noto'g'ri yoki to'qib chiqarilgan ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin. Shu sababdan chatbot keltirgan faktlar yoki manbalarga ishonchingiz komil bo'lmasa, natijalarni mustaqil manbalar orqali tekshirib ko'rishingiz kerak.

Sun'iy intellektning iste'molchilar uchun mahsulotlardagi asosiy vazifalaridan biri shaxsiylashtirishdir. Bu maqsadli reklamatardan tortib biometrik xavfsizlikni ta'minlashgacha bo'lishi mumkin. Masalan, telefoningiz Face ID'si qulfni ochayotganingizda sizning yuzingizni boshqalarnikidan ajrata olishi ham shuning natijasidir. U buni shunday qiladi: milliardlab odamlarning yuzlarini tahlil qilib, sizning yuz tuzilishingizni o'rganadi. Keyin ma'lum ma'lumot nuqtalarini moslashtiradi.

Keng miqyosda SIDan marketing sohasi va kontent ishlab chiqish jarayonini osonlashtirish uchun foydalanish mumkin. Dasturchilar esa uning yordamida kod yozadi va ishga tushiradi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt meditsina taddiqotlarining tezligi va samaradorligini oshirishi mumkin.

**CONTINUING EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE,  
INNOVATION, AND TRANSFORMATION.**  
**International online conference.**

Date: 29<sup>th</sup> May-2025

**Mashinani o‘qitish (ML) nima o‘zi?**



Mashinani o‘qitish (ML) katta hajmdagi ma’lumotlar asosida algoritmlar to‘plamini o‘rgatish jarayonini anglatadi. Bu jarayon qonuniyatlarni aniqlash orqali prognoz qilish va qaror qabul qilishga ko‘maklashadi. Qonuniyatlarni aniqlash qobiliyati tizimlarga aniq dasturlashtirilmagan vazifalarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Aynan shu xususiyat sun’iy intellektni boshqa kompyuter fanlari sohalaridan ajratib turuvchi asosiy farqdir. Ko‘pchilik bu qobiliyatni sun’iy intellekt deb atasa-da, aslida mashinani o‘qitish sohaning bir qismi hisoblanadi.

Ma’lumotlar tuzilmali yoki tartiblangan bo‘lsa, tizim g‘ayrioddiy holatlarni yanada osonroq aniqlay oladi. Misol uchun, kredit kartangizda odatdagidan tashqari, dunyoning boshqa hududidan to‘lov operatsiyasi amalga oshirilsa, tizim buni tezda payqaydi.

ML namunalariga qidiruv tizimlari, rasm va nutqni tanish hamda firibgarlikni aniqlash kiradi. Xuddi Face ID’ga o‘xshab, foydalanuvchilar Feysbukka rasmlarini yuklaganda ijtimoiy tarmoqning tasvirni tanib olish tizimi bu rasmlarni tahlil qiladi. Yuzlarni aniqlaydi va aniqlangan do‘stlarni belgilash bo‘yicha tavsiyalar beradi. Vaqt o‘tib, amaliyot va ko‘proq tasvir ma’lumotlari bilan tizim bu ko‘nikmani takomillashtiradi hamda aniqroq natijalar bera boshlaydi.

**Mashinani o‘qitish qanday ishlaydi?**

Umumiyligida mashinani o‘qitish 2 ta asosiy — nazorat ostidagi o‘qitish va nazorat qilinmaydigan o‘qitish turkumlariga ajratiladi.

**Nazorat ostidagi o‘qitish**

Sun’iy intellekt tizimlarini o‘qitishning bu keng tarqalgan usulida insonlar tomonidan izohlanib, belgilangan va turkumlarga ajratilgan ma’lumotlardan foydalaniлади.

# **CONTINUING EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE, INNOVATION, AND TRANSFORMATION.**

## **International online conference.**

Date: 29<sup>th</sup> May-2025

So‘ngra mashinani o‘qitish tizimlariga o‘xshashliklarni aniqlash uchun ushbu ma’lumotlar kiritiladi.

Tasavvur qiling, modelga aylana va kvadrat tasvirlarini aniqlashni, farqlashni o‘rgatmoqchisiz. Bunday holda doira (sayyoralar, g‘ildiraklar yoki boshqa aylana shaklga ega bo‘lgan narsalarning rasmlari) va to‘rtburchak (stollar, yozuv taxtalari, hokazo) tasvirlaridan iborat katta ma’lumotlar to‘plamini yig‘gan bo‘lardingiz. Bu ma’lumotlar to‘plamida har bir shaklning nima ekani haqida belgililar ham ko‘rinardi.

Shundan so‘ng algoritm bu belgilangan rasmlar to‘plamidan shakllarni va ularning xususiyatlarini farqlashni o‘rganadi. Masalan, doiralarning burchaklari yo‘q, kvadratning esa to‘rtta teng tomoni bor deya. Keyin tizim yangi rasmni ko‘rganida undagi shakllarni aniqlay oladi.

### **Muloqotga xoslangan sun’iy intellekt**

Muloqotga xoslangan sun’iy intellekt foydalanuvchi bilan suhbatlashish uchun dasturlashtirilgan va suhbat uslubida tinglash (ma’lumot kiritish) hamda javob qaytarish (ma’lumot chiqarish)ga o‘rgatilgan tizimlarni anglatadi. Muloqotga xoslangan SI tabiiy tilda muloqot qilish va javob berish uchun nutq bilan ishslash (NLP) texnologiyasidan foydalanadi.

Muloqotga xoslangan sun’iy intellektga Gemini’ga o‘xshash chatbotlar, Amazon Alexa kabi ovozli yordamchiga ega smart karnaylar yoki smartfoningizdagি Siri singari virtual yordamchilar yaqqol misol bo‘ladi.

### **Qanday sun’iy intellekt xizmatlaridan foydalanish mumkin?**

Iste’molchilar ham, korxonalar ham vazifalarni tezlashtirish va kundalik hayotga qulaylik qo‘sishda foydalanishi mumkin bo‘lgan ko‘plab sun’iy intellekt xizmatlari mavjud. Ehtimol, uyingizda ham sun’iy intellektga asoslangan biror qurilma bordir.

### **SI dunyoni qanday o‘zgartirishi mumkin?**

Sun’iy intellekt shiddat bilan rivojlanib, keng ko‘lamda qo‘llanar ekan, u ish uslubimiz, xarid qilish odatlarimiz, media iste’molimiz, shaxsiy hayotimiz, salomatligimiz va boshqa ko‘plab jabhalarga ta’sir o‘tkazadi. Barcha tarixiy o‘zgarishlar davrida bo‘lgani singari uning afzallikkleri, kamchiliklari va ehtimoliy xavflari birgalikda namoyon bo‘ladi.

### **Xulosa**

Sun’iy aqli tizimlar zamonaviy mehnat bozorining sezilarli qismini egallashi yaqin kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy holatdir.

Shuningdek, oddiy sun’iy intellekt barcha ish o‘rinlarini egallay olmasligi mumkin, lekin u ish jarayonlarining mohiyatini o‘zgartirishi aniq. Ayni paytda avtomatlashtirish ish joylarini qanchalik tez va chuqur o‘zgartirishi asosiy masala bo‘lib turibdi.

Shu o‘rinda sun’iy intellekt mustaqil ravishda ishlay olmasligini ham hisobga olib qo‘yish kerak. U ko‘plab takroriy ma’lumotlar bilan bog‘liq ishlarni avtomatlashtirishi mumkin bo‘lsa-da, boshqa sohalarda, aksincha, xodimlar generativ sun’iy intellekt kabi vositalardan foydalanib, o‘z samaradorligi va unumдорligini oshirish imkoniga ega bo‘ladi.

**CONTINUING EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE,  
INNOVATION, AND TRANSFORMATION.  
International online conference.**

Date: 29<sup>th</sup> May-2025

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt tizimlarining inson qobiliyatlaridan qanchalik tez o'zib ketishi hali aniq emas. Chunonchi, SI mutaxassislari ham bu borada turli xil fikr va qarashlarga ega.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. M.Aripov, B.Begalov, U.Begimqulov, M.Mamarjbov "Axborot texnologiyalari" Toshkent "Noshir"-2009.
2. Ш.Гюнтер "CorelDraw 11" Справочник Москва Бином, 2003 г.
3. Ю.С.Ковтанюк "CorelDraw 11" Санкт-Петербург, Киев 2003 г.
4. М.Бурлаков "CorelDraw 12" Москва 2004 г.
5. Бейн Стив "Эффективная работа с CorelDraw 12" Москва 2005 г.
6. К.М.Gulyamov, У.М.Mirsanov, М.Н.Ikromov. Vektor grafikasi asoslari, o'quv qo'llanma, "Fan" nashriyoti Toshkent 2021.
7. Makarova N.V. Informatika, Toshkent, Talqin, 2005 (Darslik)
8. Sattorov. "Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari". T, 2007y. (O'quv qo'llanma)
10. Панасенко С. «Защита электронных документов», Москва, ФиС, 2000 г.

**Axborot manbaalari**

1. <http://www.interface.ru/>
2. <https://sites.google.com/>
3. <http://www.videokurslar>
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
5. [www.referat.uz](http://www.referat.uz)
6. [www.Google.uz,](http://www.Google.uz)